

**TO'RTKO'L TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI  
AXBOROT-BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**



**“Yangi O’zbekiston Armiyasi-mamlakat qudrati,yuksak g’urur  
va sadoqat timsolidir”**

(O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 32  
yilligini hamda Vatan himoyachilari kuniga)

**TAVSIYA RO’YXATI**

*To’rtko’l – 2024*

## Aziz,kitobxonlar!

14 – yanvar O’zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti xavfsizligini himoya qiladigan kasb egalari – Vatan himoyachilari kuni va O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi. Bayram sanasi O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tarixidagi quyidagi eng muhim voqealar bilan bog’liqdir, 1991-yilning 31-avgust kuni “O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat yosh respublikamizga o’zining harbiy siyosatini yuritish huquqini berdi. Shu kuni e’lon qilingan “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to’g’risida”gi bayonot esa milliy Qurolli kuchlarimizni tashkil etish uchun huquqiy asos bo’lib xizmat qildi. 1993-yil 29-dekabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan “14-yanvar Vatan himoyachilari kuni” deb belgilandi. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiylar, balki ayni vaqtda armiya saflari o’z burchlarini o’tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarimiz bayrami, deb qabul qilingan. Ona yurtimiz har doim o’zining mard, jasur yigitlari bilan faxrlanib kelgan. Yigitlarimiz ota-onasiga oilasini, o’zi yashayotgan yurt bayrog’ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doimo shay turishini burch deb hisoblagan. ushbu bayramning nishonlanishi xalqimizning o’z milliy armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, alp yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi.

Bu yil O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil topganligiga 32 yil to’lishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko’rish va o’tkazish chora-tadbirlari to’g’risida”gi F-79-son farmoyishida **“Xalq va armiya-bir tanu bir jon”** tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini inobatga olib O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini va Vatan himoyachilari kunini Yangi O’zbekistonning taraqqiyot darajasi, xalqaro maydondagi nufuziga munosib, yuksak saviyada, umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash

to'g'risida ko'rsatmalar berib,dasturlar ishlab chiqildi.Hozirda ushbu dastur asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda bayramga bag'ishlab konsert dasturlari tayyorlash va o'tkazish,tarixiy joylarga gulchambarlar qo'yish marosimlarini o'tkazish,bayramga bag'ishlangan maqola va mediamateriallarni tayyorlash va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish,"Yangi O'zbekistonning yangi armiyasi" mavzusida videoroliklar tayyorlash,bayramga bag'ishlab har xil tanlovlар va harbiy-sport musobaqalarini,adabiy-ma'rifiy kechalarni,kitob taqdimotlarini,seminar va davra suhbatlari o'tkazish tashkil etilmoqda.



## 1. Ermatov,B

Amir Temur g'arbiy Yevropa adiblari nigohida.Monografiya./Bahodir Ermatov.-Toshkent:"Navro'z"nashriyoti, 2019-256 b.

Jamiyatimizning ma'nnaviy hayotini yuksaltirish xalqimiz tarixining shonli sahifalari,ulug' ajdodlarimizning shaxsiyati faoliyatini chuqur o'rganishda ushbu kitob hech shunhasiz,beqiyos ahamiyatga ega.

## 2. Sodiqov,H

Amir Temur sultanatida xavfsizlik xizmati(Tarixiy badialar): [4 qisqli]./Hamdam Sodiqov;mas'ul muharrir N.Jo'rayev;g'oya va dastur muallifi O.Ubaydullayev-Toshkent/"Art flex" nashriyoti,2016 – 576 b.

Asar Amir Temurni dunyo tamaddunida o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi,iqtidorli va yengilmas sarkarda sifatida kitobxonlarga yana ham yaqinroq tanishtirish barobarida,ularga buyuk ajdodimiz shaxsi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni yetkazib berdi.

### 3. Ivanin,M

Ikki buyuk sarkarda.Chingizzon va amir Temur:harbiy san'ati, strategiya va taktikasi.Mixail Ivanin/Tarjimon akmal Mahkamov. Mas'ul muharrir Yusuf Muzaffar.- Toshkent:"Yangi asr avlodi". 2019-304 b.

Ushbu kitob ikki buyuk sarkarda hukmronligiga bag'ishlangan. Asarda Chingizzon va Amir Temur hukmronlik qilgan davr siyosati, har ikkala hukmdorning harbiy san'ati,yurishlari,istilolari harbiy mutaxassis-Chor Rossiyasi generali tomonidan chuqur tahlil qilingan.

### 4. Abdug'afur,B

Sulton Jaloliddin Manguberdi.Baxtiyor Abdug'afur.-Toshkent: "Yangi asr avlodi",2019-448b.

Jaloliddin Manguberdining tug'ilishidan tortib,bolaligi,ilmu harbga qiziqishi,iste'dodu iqtidori,faoliyatidagi boshqa sultonlarga,jahongirlarga o'xshamagan xislatlari bilan aynan mazkur-Sulton Jaloliddin Manguberdi romanida tanishishingiz mumkin.Bu kitob o'quvchiga nafaqat chiroyli mutolaa baxsh etadi, balki jonli tarixiy ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

### 5. Umarov,M. Jang tanlamas Jaloliddin qo'shini: [harbiy strategiya]/ Muhiddin Umarov//Vatanparvar.-2024.-5-yanyv.

Ushbu maqola orqali o'quvchi Xorazmshoh Jaloliddin qo'shini o'z davrida Vatan himoyasi,yurt farovonligini ta'minlashda katta jonbozlik ko'rsatganligini,undan qolgan boy harbiy mahorat sir-sinoatlari va tajriba bugungi kunda mamlakatimizdaq professional armiyani shakllantirish va mustahkamlash,harbiy xizmatchilarning jangovor shayligini oshirish,ularda vatanparvarlik, fidoyilik, qat'iyatlilik va azm-u shijoat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim manba bo'lganligi bilan tanishtiriladi.

### 6. Yunusova,Z. Ko'ksi baland o'g'lonlar: [o'zbek yigit-mustaqillik posboni]/Zulfiya Yunusova//Vatanparvar.-2024.-5-yanyv.

Ushbu maqolada o'quvchi yuksak orzular qanotida maqsadlari tomon dadil intilayotgan qaddi tik,ko'ksi baland posbonlarning er yigitlar safiga qo'shilgani va mardlar mакtabida toblangan o'g'lolnarning istiqboli porloq bo'lishini bilib olishadi.

7. Mamajanova,D. Mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolati: [davr]/Dilbar Mamajanova//Xalq so'zi.-2024.-6-yanv.

Ushbu maqola davlatimiz rahbarining "Armiya va xalq-bir tanu bir jon" degan oliyjanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari ,mahalla,yoshlar,xotin-qizlar, nuroniy tashkilotlari,ta'lim-tarbiya tashkilotlari faoliyatini va keng jamiyatchilik faoliyatini qamrab olayotgani va bu esa Vatan himoyasi barchamizning vazifamiz va sharaflı burchimiz ekanligini anglatadi.

8. Samadov,F.Osoyishtaligimizning ishonchli va mustahkam qalqoni: [Armiya va xalq-bir tanu bir jon]/Faxriddin Samadov//Yangi O'zbekiston.-2024.-5-yanv.

Ushbu maqolada hozirda Qurolli kuchlar tizimida "Inson qadri uchun" tamoyili markaziy o'ringa qo'yilgani,Qurolli kuchlarimiz tom ma'noda jamiyatning ajralmas qismi,mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolati,yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan muhim institutga aylanganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

9. Qarshiyev,H.Yuksak jangovor ruh-askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudratidir: [Armiya va xalq-bir tanu bir jon]/Hamdam Qarshiyev//Xalq so'zi.-2024.-10-yanv.

Ushbu maqolada hozirda harbiy xizmatda asosan harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish maqsadida turli tadbir va tanlovlar tashkillashtirilib borilayotganligi to'g'risida so'z yuritilgan.

### **Axborot bibliografiya xizmati**

**bibliografi:**

**A.Akshurayeva.**

